



# NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

**2021- yil yanvar-iyun oylarida asosiy kapitalga  
kiritilgan investitsiyalar**



2021- yilda asosiy kapitalga 5366,9 mlrd. so‘mlik investitsiyalar yo‘naltirildi, shundan 77,1 % jalb qilingan mablag’lar, 22,9 % korxonalar va tashkilotlarning o‘z mablag’lari hisobidan ta’minlandi.

## Markazlashtirilgan investitsiyalar:



Respublika byudjeti:  
214,9 mlrd. so'm



Hukumat kafolati ostidagi chet el kreditlari:  
332,1 mlrd. so'm



Suv taminoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi:  
37,8 mlrd. so'm



Tiklanish va taraqqiyot jamg'armasi:  
72,8 mlrd. so'm

## Markazlashtirilmagan investitsiyalar:



Aholi mablag'lari:  
659,4 mlrd. so'm



Korxona mablag'lari:  
1234,2 mlrd. so'm



Bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari:  
990,9 mlrd. so'm



To'g'ridan-to'gri va boshqa xorijiy investitsiyalar va kreditlar:  
1824,7 mlrd. so'm




## NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

### Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning jami investitsiyalardagi ulushi quyidagicha taqsimlandi – hukumat kafolati ostidagi kreditlar – **6,2** % ni, to'g'ridan-to'g'ri va boshqa xorijiy investitsiyalar va kreditlar – **34,0** % ni, aholi mablag'lari – **12,3** % ni, bank kreditlari va boshqa qarz mablag'lari – **18,4** %, korxona mablag'lari, mahalliy byudjet va homiy rezident mablag'lari – **23,0** % ni, Respublika byudjeti – **4,0** % ni, suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi **0,7** % ni, tiklanish va tarqqiyot jamg'armasi **1,4** % tashkil etdi.

### Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar (umumiy hajmdagi ulushi, %)





## NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

### Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning moliyalashtirish manbalari


	Mlrd. so‘m	O‘sish sur’ati, % da	Umumiylajmiy hajmga nisbatan, % da
<b>Barcha moliyalashtirish manbalari</b>	<b>5 366,9</b>	<b>91,6</b>	<b>100,0</b>
Respublika byudjeti	214,9	95,8	4,0
O‘zbekiston Respublikasi kafolati bilan chet el kreditlari	332,1	67,1	6,2
Suv ta’minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg’armasi	37,8	212,2	0,7
Korxonalar mablag’i, mahalliy byudjet va homiy rezident mablag’lari:	1234,2	80,4	23,0
Bank kreditlari va boshqa qarz mablag’lari	990,9	111,1	18,5
To‘g’ridan-to‘g’ri va boshqa xorijiy investitsiyalar hamda kreditlar	1824,7	90,8	34,0
Aholi mablag’lari	659,4	95,9	12,2
Tiklanish va taraqqiyot jamg’armasi mablag’lari	72,8	95,8	1,4



NAMANGAN VILOYAT  
STATISTIKA BOSHQARMASI



### Asosiy kapitalga investitsiyalar tumanlar kesimida mlrd.so'mda






## NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning eng yuqori o'sish sur'atlari Chortoq tumanida kuzatildi, ularning o'sish sur'ati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 147,0 % ni tashkil etganini ko'rishimiz mumkin.



**Hududlar kesimida asosiy kapitalga  
kiritilgan investitsiyalar**

**Umumiy hajmdagi ulushi %**




Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning rivojlanishi Namangan shahri yetak-chilik qilmoqda. Ushbu hududda asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning 43,0 % o‘zlashtirildi, keyingi o‘rinda Namanagan tumanining ulushi 10,6 % ni tashkil etdi.



## NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

### Asosiy kapitalga investitsiyalarning texnologik tarkibi




Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning texnologik tarkibiga ko‘ra qurilish-montaj ishlari 1411,3 mlrd. so‘mga yetkazildi, asbob-uskunalar va jihozlar 3810,2 mlrd. so‘mga, boshqa kapital ishlar va xarajatlar esa 145,3 mlrd. so‘mga yetdi.





## NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI


### Asosiy vositalarga investitsiyalarning qurilish montaj ishlari mlrd.so'mda






Asosiy kapitaldagи investitsiyalarning katta qismi yangi qurilishga yo‘naltirildi. Yangi qurilishga kiritilgan investitsiyalar hajmi 3002,6 mlrd. so‘mni tashkil etdi, bu jami investitsiyalarning 56,0 % ini tashkil etdi.

Mavjud obyektlarni rekonstruksiya qilish, modernizatsiya qilish va texnik qayta qurollantirishni kengaytirishga yo‘naltirilgan investitsiyalar hajmi 1241,7 mlrd. so‘mni yoki umumiy hajmining 23,1 % ini tashkil etdi. Qolgan 20,9 % yoki 1122,6 mlrd. so‘m boshqa sohalarga yo‘naltirildi.



Iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha asosiy kapitalga investitsiyalar tarkibida noishlab chiqarish sohasi yetakchilik qilmoqda. Ushbu sohada barcha moliyalashtirish manbalari hisobidan 3145,1 mlrd. so'm yoki asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar umumiy hajmining 58,6 % o'zlashtirildi. Uy-joy qurilishi umumiy qiymati 519,4 mlrd. so'mni yoki umumiy hajmning 9,7 % ni tashkil etdi.

**Iqtisodiy faoliyat turi bo'yicha asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalar, % da**





## NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI


### Asosiy kapitalga kiritilgan to‘gridan-to‘g’ri chet el investitsiyalari va kreditlari

Shahar va tumanlar	2020-yil mlrd. so‘mda	2021-yil yanvar-iyun oylarida mlrd. so‘mda	2020-yilga nisbatan % da
<b>Namangan viloyati</b>	<b>1326,6</b>	<b>1575,6</b>	<b>109,5</b>
Namangan sh.	448,5	478,5	98,3
tumanlar:			
Mingbuloq	3,0	72,6	22,3 m
Kosonsoy	41,7	75,7	167,3
Namanagan	162,7	118,4	67,1
Norin	33,3	50,4	139,5
Pop	107,8	231,0	197,5
To‘raqo‘rg’on	60,4	10,8	16,5
Uychi	16,5	56,5	3,1 m
Uchqo‘rg’on	31,2	26,9	79,5
Chortoq	2,0	99,6	45,9 m
Chust	370,6	221,3	55,0
Yangiqo‘rg’on	48,9	133,9	2,5 m

**Qurilish obyektlari**




**Uy-joy qurilishi ming kv.m**





## NAMANGAN VILOYAT STATISTIKA BOSHQARMASI

2021- yil yanvar-iyun oylarida umumiy maydoni 487,3 ming kv.m bo‘lgan 3277 ta uy-joy qurilishi amalga oshirildi, shu jumladan, qishloq joylarda 316,0 ming kv.m bo‘lgan 2137 ta uy-joy qurib bitkazildi.



**Namangan viloyati statistika boshqarmasi  
Investitsiyalar va qurilish statistikasi bo‘limi**

Mas’ul: **B. Tursinov**  
Telefon: **(69) 227-84-85**